ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Поступила: 15.07.2026 · Принята: 12.09.2026 · Опубликована: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/vf9ga707

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Musiqiy ovoz rejissorlarini tayyorlashning zamonaviy pedagogik modeli

(A Modern Pedagogical Model for Training Music Sound Directors)

Zokir Atabayev

Department of composition, bastakors and general piano,
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: zakirjonatabaev@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada musiqiy ovoz rejissorlarini tayyorlashning amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik modeli va uning O‘zbekiston milliy musiqa san’ati instituti (O‘zMMSI)da ishlab chiqilgan “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturidagi ifodasi yoritiladi. Ovoz rejissorligini alohida texnik bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi emas, balki musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga to‘laqonli va ta’sirchan yetkazishga qaratilgan ijodiy-amaliy faoliyat sifatida tashkil etish taklif etiladi. Modelning metodologik asosi sifatida *tovush trakti* tamoyili – tovush makoni, tovushni qabul qilish, tovushni qayta ishlash va tovushni eshittirishning yagona kasbiy jarayon sifatidagi izchil tizimi – belgilangan. Tadqiqotda musiqiy tafakkur, akustik tafakkur, professional eshitish, texnologik savodxonlik va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini integratsiyalash bo‘lajak ovoz rejissorini tayyorlashning muhim sharti sifatida asoslanadi. Texnik to‘g‘rilik zarur shart, musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga yetkazish esa asosiy maqsad sifatida belgilanadi.

Kalit so‘zlar: musiqiy ovoz rejissori, ovoz rejissorligi san’ati, pedagogik model, tovush trakti, professional eshitish, musiqiy tafakkur, akustik tafakkur, badiiy mazmun.

Abstract

The article examines a modern practice-oriented pedagogical model for training music sound directors and its implementation in the “Art of Sound Directing” course programme developed at the National Institute of Music and Arts of Uzbekistan. Sound directing is considered not as a set of separate technical knowledge and skills, but as a creative and practical activity aimed at conveying the artistic content of a musical work to the listener in a complete and expressive manner. The methodological basis of the model is the principle of the SOUND

TRACT as an integrated professional process: sound space → sound reception → sound processing → sound reproduction. The study substantiates the importance of integrating musical thinking, acoustic thinking, professional hearing, technological literacy, and creative decision-making in the training of future sound directors. Technical accuracy is regarded as a necessary condition, while the communication of the artistic content of a musical work to the listener is defined as the primary professional objective.

Keywords: music sound director, sound directing, pedagogical model, sound tract, professional hearing, musical thinking, acoustic thinking, technological literacy, creative decision-making, artistic content.

Аннотация

В статье рассматривается современная педагогическая модель подготовки музыкальных звукорежиссёров, ориентированная на практическую деятельность, и её реализация в учебной программе «Искусство звукорежиссуры», разработанной в Национальном институте музыкального искусства и культуры Узбекистана. Звукорежиссура рассматривается не как совокупность отдельных технических знаний и навыков, а как творческо-практическая деятельность, направленная на полноценную и выразительную передачу художественного содержания музыкального произведения слушателю. Методологической основой модели определён принцип ЗВУКОВОГО ТРАКТА как единой профессиональной системы: звуковое пространство → восприятие звука → обработка звука → воспроизведение звука. В исследовании обосновывается необходимость интеграции музыкального мышления, акустического мышления, профессионального слуха, технологической грамотности и способности к принятию творческих решений в процессе подготовки будущего звукорежиссёра. Техническая корректность рассматривается как необходимое условие, тогда как передача художественного содержания музыкального произведения слушателю определяется как основная профессиональная цель.

Ключевые слова: музыкальный звукорежиссёр, искусство звукорежиссуры, педагогическая модель, звуковой тракт, профессиональный слух, музыкальное мышление, акустическое мышление, технологическая грамотность, творческое решение, художественное содержание.

KIRISH

Musiqiy ovoz rejissorini tayyorlashning samaradorligi, avvalo, ta’lim jarayoni qanday kasbiy natijaga yo‘naltirilganiga bog‘liq. Shuning uchun ovoz rejissorligi ta’limining asosiy savoli “Talabaga nimalarni o‘rgatish kerak?” emas, balki

“Qanday ovoz rejissorini tayyorlash kerak va unga qanday yo‘l bilan erishiladi?” degan savol bo‘lishi lozim. Mazkur savolga aniq javob berilmagan taqdirda, o‘quv fanlari va amaliy mashg‘ulotlar o‘zaro bog‘lanmagan bilim va ko‘nikmalar yig‘indisiga aylanib qolishi mumkin. Musiqiy ovoz rejissorining kasbiy faoliyatini faqat tovushni yozib olish, qayta ishlash va eshittirish bilan chegaralash uning ijodiy mohiyatini to‘liq ifodalamaydi. “Ovoz rejissorining asosiy vazifasi – yozilayotgan musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga chiroyli, to‘laqonli va ta’sirchan tarzda yetkazib berishdir”[3; 5].

Demak, texnologik vositalar ovoz rejissorligi faoliyatining maqsadi emas, balki badiiy maqsadni amalga oshirish vositasidir.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak ovoz rejissorini tayyorlash mazmuni uning real kasbiy faoliyati bilan uyg‘un qurilishi kerak. Ovoz rejissorining amaliy faoliyati tovushning hosil bo‘lishidan boshlab, uning tinglovchiga yetib borishigacha bo‘lgan uzluksiz jarayonni qamrab oladi [2; 3]. Mazkur jarayonni *tovush trakti* tamoyili asosida tizimlashtirish mumkin: tovush makoni → tovushni qabul qilish → tovushni qayta ishlash → tovushni eshittirish.



1-rasm. Tovush trakti

Ushbu ketma-ketlik texnik signal yo‘lining oddiy tavsifi emas, balki ovoz rejissorining ijodiy qarorlari amalga oshiriladigan yagona kasbiy tizimdir.

Tovush traktining har bir bosqichida ovoz rejissori muayyan kasbiy vazifani hal qiladi. Tovush makonida u tovush manbai, akustik muhit va ularning o‘zaro ta’sirini anglaydi; tovushni qabul qilish bosqichida tovushning tabiiyligi va badiiy xususiyatlarini saqlashga xizmat qiluvchi vositalarni tanlaydi; tovushni qayta ishlashda yozib olingan materialning musiqiy mazmunini ochishga qaratilgan ijodiy qarorlarni amalga oshiradi; tovushni eshittirish bosqichida esa shakllantirilgan audio obrazning tinglovchiga qanday yetib borishini nazorat qiladi.

Bunday yondashuvda talaba o‘qishning dastlabki bosqichidanoq o‘zining kasbiy maqsadini anglaydi: “Men qanday mutaxassis bo‘laman?” va “Bu mutaxassislikka qanday erishaman?” Har bir fan, har bir mavzu va har bir amaliy mashg‘ulot ana shu savollarga javob beradigan yagona ta’lim tizimining tarkibiy qismiga aylanadi. Shu sababli ta’lim mazmuni alohida texnik bilimlarni berishga emas, balki ularni yagona ijodiy faoliyatga birlashtirishga yo‘naltirilishi lozim.

Musiqiy ovoz rejissorini tayyorlashda, ayniqsa, musiqiy tafakkur, akustik tafakkur, professional eshitish, texnologik savodxonlik va ijodiy qaror qabul qilish qobiliyatlarining o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ovoz rejissori ijroni nafaqat texnik jihatdan nazorat qiladi, balki zarur hollarda uning badiiy sifatini oshirishga xizmat qiluvchi kasbiy tavsiya va qarorlarni ham beradi. Demak, ovoz rejissorligi ta’limida texnik to‘g‘rilik zarur shart bo‘lsa, musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga yetkazish asosiy maqsad bo‘lishi kerak.

Shu asosda O‘zMMSIda ishlab chiqilgan “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturi ovoz rejissorining real amaliy faoliyatiga tayangan holda shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni tovush trakti tamoyili asosida izchil tashkil etiladi. Mazkur yondashuv fan mazmunini mavzular yig‘indisi sifatida emas, balki bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantiruvchi pedagogik tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Maqolaning maqsadi – musiqiy ovoz rejissorlarini tayyorlashning amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik modelini ishlab chiqish hamda ushbu modelning O‘zMMSI “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturida tovush trakti tamoyili asosida ifodalanishini asoslashdan iborat.

II. MUSIQIY OVOZ REJISSORINING KASBIY MODELI

Musiqiy ovoz rejissorini tayyorlashning pedagogik mazmuni, avvalo, uning kasbiy faoliyatidagi asosiy vazifa va mas’uliyatlarni aniq belgilashni talab etadi. Ovoz rejissori faoliyatining natijasi faqat texnik jihatdan sifatli yozuv bilan emas, balki yozilayotgan musiqiy asarning badiiy mazmuni tinglovchiga qanday darajada yetib borishi bilan baholanadi. Shu sababli bo‘lajak mutaxassisning kasbiy modeli texnik operatsiyalarni bajaruvchi ijrochi emas, musiqiy mazmunni tovush vositasida shakllantirib, tinglovchiga yetkazuvchi ijodkor sifatida qurilishi lozim.

Bunday mutaxassis, avvalo, musiqiy asarning mazmuni, dramaturgiyasi, janri, ijro xususiyati va uslubini anglay olishi kerak. U ijroni eshitish orqali uning badiiy kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, zarur holatlarda ijrochiga tegishli tavsiya beradi va texnologik vositalar yordamida ijroning mazmunini yanada ravshanlashtirishga intiladi. Demak, professional ovoz rejissorining faoliyati eshitishdan boshlanib, ijodiy qaror bilan davom etadi va badiiy natija bilan yakunlanadi.

Shu jihatdan ovoz rejissorining kasbiy modeli bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Birinchi komponent – musiqiy tafakkur. Ovoz rejissori ijro etilayotgan materialning ichki musiqiy mantiqini tushunmasdan turib, uning tovush obrazini maqsadli shakllantira olmaydi.

Ikkinchi komponent – akustik tafakkur. Tovushning manbasi, uning tarqalish muhiti va ushbu muhitning tovushga ko‘rsatadigan ta’sirini anglash ovoz rejissorining asosiy kasbiy bilimlaridan biridir [1; 2]. Aynan shu bilim tovushning

tabiiyligini saqlash, akustik makondan maqsadli foydalanish va yozuv sharoitini to‘g‘ri tashkil etishga imkon beradi.

Uchinchi komponent – professional eshitish. Ovoz rejissori tovushdagi tembr, dinamika, spektr, fazo, vaqt va boshqa o‘zgarishlarni oddiy tinglovchidan farqli ravishda kasbiy mezonlar asosida idrok eta olishi lozim [3]. Eng muhimi, u eshitilgan kamchilikning faqat mavjudligini emas, uning sababini ham aniqlay olishi va uni bartaraf etish yo‘lini topishi kerak.

To‘rtinchi komponent – texnologik kompetensiya. Mikrofon, tovush yozish tizimi, miksher, signalga ishlov berish vositalari va eshittirish tizimlarini bilish ovoz rejissorining ijodiy qarorini amaliy natijaga aylantirish imkonini beradi [3]. Biroq texnologik vosita mustaqil maqsad emas; uning tanlanishi va qo‘llanishi har doim musiqiy mazmunni yetkazish vazifasiga bo‘ysunadi.

Beshinchi komponent – ijodiy qaror qabul qilish qobiliyati. Ovoz rejissori mavjud texnik imkoniyatlardan vaziyatga mos va badiiy jihatdan asoslangan yechimni tanlay olishi kerak. Bir xil ijro uchun turli texnologik yechimlar mavjud bo‘lishi mumkin, ammo professional qaror ularning ichidan asarning mazmunini eng yaxshi ochib beradigan variantni tanlash bilan belgilanadi.

Shunday qilib, musiqiy ovoz rejissorining kasbiy tayyorgarligi musiqiy tafakkur → akustik tafakkur → professional eshitish → texnologik bilim → ijodiy qaror izchilligida shakllanadi. Ushbu tarkibiy qismlar alohida emas, yagona ta’lim jarayonida birlashadi. Ularning fan dasturidagi amaliy ifodasi esa tovush trakti orqali namoyon bo‘ladi. Demak, kasbiy model qanday mutaxassis tayyorlanishini belgilasa, tovush trakti ushbu natijaga fan dasturi orqali qanday erishilishini ko‘rsatadi.

TOVUSH TRAKTI – MUSIQIY OVOZ REJISSORINI TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSI

Musiqiy ovoz rejissorining kasbiy faoliyati tovushning yuzaga kelishidan uning tinglovchi tomonidan idrok etilishigacha davom etadigan uzluksiz jarayondir. Shu sababli bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash mazmunini ham mazkur amaliy jarayonning tabiiy izchilligiga asoslash maqsadga muvofiq. Tovush trakti ana shu izchillikni pedagogik tizimga aylantiruvchi metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Tovush trakti tamoyili tovush makoni → tovushni qabul qilish → tovushni qayta ishlash → tovushni eshittirish bosqichlaridan tashkil topadi. Ushbu bosqichlar bir-biridan mustaqil texnik jarayonlar emas, balki yagona ijodiy faoliyatning o‘zaro bog‘langan qismlaridir. Bir bosqichda qabul qilingan qaror keyingi bosqichning imkoniyatlari va natijasiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli talaba tovushni alohida operatsiyalar yig‘indisi sifatida emas, yagona kasbiy jarayon sifatida idrok etishi lozim.

Tovush traktining pedagogik qiymati shundaki, u ta’lim mazmunini texnologik vositalarning tuzilishi emas, ovoz rejissorining real amaliy faoliyati asosida tashkil etish imkonini beradi. Natijada talaba har bir yangi bilim va amaliy ko‘nikmaning kasbiy vazifasi bilan bevosita bog‘liqligini anglaydi. Bu esa “fan uchun bilim” tamoyilidan “kasb uchun bilim” tamoyiliga o‘tishni ta’minlaydi.

Tovush makoni

Tovush traktining birinchi bosqichi – tovush makoni. Bu bosqichda tovush manbai, uning joylashgan muhiti va ushbu muhitning tovushga ko‘rsatadigan ta’siri o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi[1; 2]. Ovoz rejissori uchun tovushning o‘zi bilan bir qatorda, uning qanday makonda va qanday sharoitda yuzaga kelayotgani ham muhimdir.

Bu bosqichda talaba tovushning tabiiy xususiyatlarini, uning vaqt bo‘yicha rivojlanishini va akustik muhit bilan o‘zaro ta’sirini kuzatadi. Ayniqsa, tovush manbaining hujum, davomiylik va so‘nish xususiyatlari, ya’ni ADSR tavsifi bilan akustik makon o‘rtasidagi munosabatni anglash muhimdir. Makonning o‘zgarishi ayni tovush manbaining eshitilish xarakteriga qanday ta’sir ko‘rsatishini anglash keyingi bosqichlarda tabiiy tovushni saqlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy tayyorgarlikni shakllantiradi.

Shuningdek, musiqiy, shovqinli va nutqiy tovushlarning akustik xususiyatlarini farqlash ham shu bosqichning muhim vazifalaridan biridir. Bunda asosiy e’tibor tovushni shunchaki ajratishga emas, uning tabiiy eshitilish shartlarini aniqlashga qaratiladi. Ijrochini akustik makonda to‘g‘ri joylashtirish ham aynan shu kasbiy maqsadga xizmat qiladi.

Tovushni qabul qilish

Ikkinchi bosqichda tovushning tabiiyligi asosiy kasbiy mezon sifatida davom etadi. Ovoz rejissori mavjud tovushni qanday vosita orqali va qanday sharoitda qabul qilishni hal qiladi. Shu sababli mikrofonni tanlash, uning yo‘nalishi, tovush manbaiga nisbatan masofasi va joylashuvi texnik parametrlarni o‘zlashtirishdan ko‘ra kengroq – tovushning tabiiyligi va badiiy xususiyatini saqlash vositasi sifatida o‘rganiladi [3].

Talaba aynan shu bosqichda “qaysi mikrofon?” degan savol bilan birga “nega aynan shu mikrofon?” degan savolga javob berishni o‘rganishi kerak. Turli cholg‘ular va ovozlar uchun mikrofon tanlash, bir xil mikrofonlar parkidan turli tovush manbalari uchun foydalanilganda ularning joylashuvi va sozlanishini o‘zgartirish, pop-filtrdan foydalanish, mikrofonning yo‘nalish xususiyatidan maqsadli foydalanish kabi masalalar yagona kasbiy maqsad – tabiiy va badiiy jihatdan to‘g‘ri tovushni qabul qilishga bo‘ysundiriladi.

Shuningdek, tabiiy tovush bilan mikrofon orqali qabul qilinayotgan tovushni taqqoslash, ular o‘rtasidagi farqni aniqlash, yuzaga kelgan muammoning sababini topish va uni bartaraf etish bo‘lajak ovoz rejissorining muhim amaliy kompetensiyasidir. Mikrofon ulanishlari, kabel va shtativlardan foydalanish ham shu jarayonning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Masalan, shtativ faqat tovush manbaiga qulay bo‘lgan nuqtaga emas, balki ijrochining erkin va xavfsiz harakatini hisobga olgan holda joylashtirilishi kerak. Chunki texnik jihatdan to‘g‘ri joylashgan, biroq ijrochiga xalaqit beradigan konstruksiya ijroning badiiy yaxlitligiga zarar yetkazishi mumkin.

Tovushni qayta ishlash

Uchinchi bosqich – yozib olingan tovushni badiiy maqsadga muvofiq shakllantirish bosqichidir. Bu jarayon miksher pulti tuzilishi asosida izchil o‘zlashtirilishi mumkin. Bunda miksherning input, dinamik ishlov berish, filtr va amplituda-chastota ishlovi, AUX, panorama, asosiy fader va master chiqish kabi qismlari alohida funksiyalar emas, balki yagona audio signalni shakllantirish tizimining o‘zaro bog‘liq bo‘g‘inlari sifatida qaraladi [3; 6].

Bu bosqichda talaba texnik parametrlarni o‘zgartirishning o‘zini emas, ushbu o‘zgarish musiqiy mazmunga qanday xizmat qilayotganini anglashni o‘rganadi. Demak, qayta ishlashning mezoni “signalga ishlov berildi” degan texnik fakt emas, balki tovushning badiiy obrazini yaxshilashga erishilganidir.

Shu jihatdan talaba uchun “qanday sozlash kerak?” savoli bilan bir qatorda “nega aynan shunday sozlash kerak?” degan savol doimo mavjud bo‘lishi lozim. Tovushning tabiiyligini buzuvchi yoki musiqiy mazmunni xiralashtiruvchi ishlov texnik jihatdan mumkin bo‘lsa-da, ijodiy jihatdan maqsadsiz bo‘lishi mumkin.

Tovushni eshittirish

Tovush traktining yakuniy bosqichi – tovushni tinglovchiga yetkazish jarayonidir. Miksherning master chiqishidan keyin signalning qaysi tizimlar orqali o‘tishi, kuchaytirilishi va eshittirilishi yakuniy idrokka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois amplifikatsiya tizimlari, aktiv va passiv akustik tizimlar, monitoring tizimlari hamda qo‘shimcha chiqishlar ovoz rejissorining kasbiy tayyorgarligida alohida ahamiyatga ega [3; 7].

Biroq bu bosqichning mohiyati apparaturani sanab o‘tishda emas. Asosiy vazifa – oldingi uch bosqichda yaratilgan audio obrazning tinglovchiga qanday ko‘rinishda yetib borishini nazorat qilish. Demak, eshittirish tizimi ham badiiy maqsadga bo‘ysunadi.

Tovush traktining pedagogik mohiyati

Shunday qilib, tovush trakti tamoyili ovoz rejissorligi ta’limini texnik vositalar bo‘yicha alohida bilim berishdan kasbiy faoliyatni yaxlit o‘zlashtirishga olib o‘tadi. Talaba tovushning paydo bo‘lishi, qabul qilinishi, qayta ishlanishi va eshittirilishi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglagan sari har bir texnologik qarorning badiiy natijaga ta’sirini tushuna boshlaydi.

Shu sababli tovush trakti – faqat signal yo‘li emas, balki bo‘lajak ovoz rejissorining kasbiy tafakkurini shakllantirish modelidir. Va bu modelning yakuniy mezoni bitta: *texnik jihatdan to‘g‘ri tovush – zarur shart; musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga yetkazish esa asosiy maqsad.*

TOVUSH TRAKTI TAMOYILINING “OVOZ REJISSORLIGI SAN’ATI” FAN DASTURIDA AMALIY IFODASI

“Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturining mazmuni tovush trakti tamoyiliga muvofiq ravishda ovoz rejissorining real kasbiy faoliyati ketma-ketligidan kelib chiqib shakllantirilgan. Bunda tovush trakti faqat mavzularni tartibga soluvchi

strukturaviy sxema emas, balki har bir o‘quv mavzusining kasbiy vazifasini belgilovchi metodik mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuvda tovush traktining har bir bosqichi fan dasturida uni mazmunan ifodalovchi mavzular tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu mavzularning vazifasi alohida texnik bilimlarni berish bilan cheklanmaydi; ular talabaning muayyan kasbiy vazifani mustaqil hal qilishiga olib keladigan bilim, eshitish tajribasi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tovush makoni

Tovush traktining birinchi bosqichi – tovushning yuzaga kelishi va akustik muhit bilan o‘zaro munosabatini anglashdir. Bu bosqichda talaba tovush manbai, uning akustik xususiyatlari, ijro muhiti va ushbu muhitning tovushga ko‘rsatadigan ta’sirini yaxlit holda kuzatadi.

Ushbu vazifani fan dasturida mazmunan ifodalovchi mavzular qatoriga “Musiqiy tovushlar”, “Nutqiy tovushlar”, “Shovqinli tovushlar”, shuningdek, “Turli tovush manbalarini tahlil qilish” kabi mavzular kiradi. Ularda turli tovush manbalarining tembr, dinamika va boshqa eshitish xususiyatlarini farqlash, tovush manbalarining akustik xususiyatlarini amaliy misollar asosida taqqoslash ko‘zda tutilgan [9].

Mazkur bosqichning asosiy kasbiy natijasi – talabaning “tovush qayerda, qanday manbadan va qanday akustik sharoitda hosil bo‘lmoqda?” degan savolga kasbiy nuqtai nazardan javob bera olishi. Bu esa keyingi bosqichlarda tabiiy tovushni saqlash uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich akustik tafakkurni shakllantiradi.

Shunday qilib, tovush makoni bosqichida fan dasturi mavzulari tovushni texnologik tizimga kiritishdan oldingi real akustik voqelikni anglash vazifasini bajaradi.

Tovushni qabul qilish

Tovush traktining ikkinchi bosqichida asosiy mezon – tovush tabiiyligini saqlash. Tabiiy tovushni yozuv tizimida imkon qadar to‘laqonli aks ettirish uchun mikrofonni tanlash, uning joylashuvi, yo‘nalishi, masofasi va yozuv sharoiti birgalikda ko‘rib chiqiladi.

Bu bosqichni mazmunan ifodalovchi mavzular ayniqsa aniq ko‘rinadi. Fan dasturida “Tabiiy tovush bilan mikrofondan eshitilayotgan tovushlarni solishtirish”, “Mikrofonlarning tuzilishi va ishlash prinsipi”, “Mikrofon tanlash mezonlari”, “Mikrofonlarni joylashtirish usullari”, “Akustik cholg‘u va vokalni yozib olish asoslari” hamda “Stereo mikrofonlashtirish usullari” kabi mavzular berilgan [3; 9].

Mazkur mavzularning o‘zaro bog‘liqligi ayniqsa muhim. Masalan, mikrofon tanlashning o‘zi yetarli emas; tanlangan mikrofonning tovush manbaiga nisbatan masofasi, balandligi, yo‘nalishi va burchagi o‘zgarishi yozuv natijasini o‘zgartiradi. Fan dasturida bu o‘zgarishlarni tinglab taqqoslash va muayyan tovush manbai uchun optimal joylashuvni aniqlash ko‘zda tutilgan.

Demak, talaba bu bosqichda “qaysi mikrofon?” degan savol bilan cheklanmaydi; “nega aynan shu mikrofon, nima uchun aynan shu joylashuv va bu qaror tovushning tabiiyligiga qanday ta’sir qiladi?” degan savollar asosida kasbiy qaror qabul qilishga o‘rganadi.

Bu yondashuvning muhim pedagogik jihati shundaki, texnik qurilma o‘z-o‘zicha o‘rganilmaydi. Mikrofon, kabel, ulagich, shtativ yoki mikrofonlashtirish usuli ijroning uzluksizligi, tovushning tabiiyligi va badiiy mazmunning saqlanishi bilan bog‘liq holda o‘zlashtiriladi.

Tovushni qayta ishlash

Uchinchi bosqich yozib olingan tovushni badiiy maqsadga muvofiq shakllantirish bilan bog‘liq. Ushbu bosqichda fan dasturining mazmuni miksher pulti va uning signal trakti asosida izchil qurilgan.

Mazkur bosqichni ifodalovchi mavzular qatorida “Kirish (Input) bo‘limi”, “Dinamik protsessorlar”, “Chastota ishlovi: Equalizer va filtrlar”, “AUX bo‘limi va badiiy ishlov berish”, “Panorama va fazoviy tovush makoni”, “Kanal faderi va mikslashga tayyorgarlik”, “Master chiqish va nazorat tizimlari” hamda keyingi bosqichda “Mikslashning asosiy tamoyillari” kabi mavzular mavjud [3; 6; 9].

Bu yerda muhim jihat – mavzularning texnik ketma-ketligi emas, balki ularning signal yo‘lidagi funksional va ijodiy aloqasidir. Inputda signalni to‘g‘ri qabul qilishdan boshlab dinamik va chastotaviy ishlov, AUX orqali badiiy ishlov, panorama, kanal balansi va master nazoratigacha bo‘lgan jarayon tovushning yagona audio obraz sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Fan dasturidagi yakuniy baholash mazmunida ham talabaning signalni mustaqil sozlashi, zarur protsessorni tanlashi, filtr yoki ekvalayzer qo‘llashi va natijani tinglash orqali baholashi ko‘zda tutilgan.

Shu sababli mazkur bosqichning asosiy kasbiy natijasi texnik parametrlarni bilish emas, balki eshitilgan material uchun badiiy maqsadga mos ishlov usulini tanlay olishdir. Talaba “qanday sozlash kerak?” bilan bir qatorda “nima uchun aynan shunday sozlash kerak?” degan savolga javob bera olishi lozim.

Tovushni eshittirish

Tovush traktining to‘rtinchi bosqichi audio signalning tinglovchiga yetib borishini ta’minlash bilan bog‘liq. Bu bosqichda signalning master chiqishidan keyingi yo‘li, uni kuchaytirish, akustik tizimlar orqali eshittirish va monitoring qilish jarayonlari yaxlit tizim sifatida o‘rganiladi.

Mazkur bosqichni mazmunan ifodalovchi mavzular – “Master chiqish va nazorat tizimlari”, “Tovushni kuchaytirish va akustik tizimlar”, “Ko‘p kanalli tovushni eshittirish tizimlari” va “Ovoz rejissyorligida psixoakustikaning ahamiyati” [1; 3; 7; 9]. Fan dasturida kuchaytirgich va aktiv-passiv akustik

tizimlarni ulash, signal yo‘lini tashkil etish, turli akustik tizimlarni eshittirish sharoitiga mos tanlash va sozlash ko‘nikmalari ko‘zda tutilgan.


Bu bosqichning mohiyati ham apparaturani sanab o‘tishdan iborat emas. Asosiy savol – yaratilgan audio obraz tinglovchiga qanday yetib bormoqda? Fan dasturidagi psixoakustika mavzusi ham aynan shu nuqtani mustahkamlaydi: bir xil audio materialning turli daraja, chastotaviy balans, dinamika, panorama va monitoring sharoitlarida turlicha idrok etilishi amaliy ravishda kuzatiladi.

Shu tariqa talaba audio signalning yakuniy eshittirilishi faqat texnik reproduksiya emas, balki tinglovchi idroki bilan bog‘liq ijodiy nazorat bosqichi ekanini anglaydi.

Tovush trakti va fan dasturi mazmunining uzviyligi

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturida tovush trakti mavzularni sun’iy ravishda birlashtirish uchun qo‘llanilgan sxema emas. U fan dasturi mazmunining ichki mantiqini tashkil etuvchi metodik asos sifatida ishlaydi.

Bunda bog‘liqlik quyidagi ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:



2-rasm. Tovush traktining fan dasturi bilan uzviyligi

Demak, tovush trakti – konseptual model; vakillik qiluvchi mavzular – uning fan dasturidagi amaliy ifodasi; shakllantiriladigan kasbiy kompetensiya – pedagogik natija; musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga yetkazish esa yakuniy maqsaddir.

“NIMA UCHUN?” TAMOYILI – KASBIY QAROR QABUL QILISHNI SHAKLLANTIRISH

Ovoz rejissorligi ta’limida amaliy ko‘nikmaning o‘zi yetarli emas. Talaba bajariladigan texnologik harakatning qanday amalga oshirilishini bilish bilan birga, uning nima sababdan aynan shu tarzda bajarilishini ham tushunishi kerak. Chunki bir xil texnik vosita turli musiqiy materiallarda turlicha natija berishi mumkin, bir xil vazifa esa turli texnologik yechimlarni talab qilishi mumkin. Shu sababli kasbiy

tayyorgarlikning muhim mezoni texnologik harakatni takrorlash emas, uning badiiy va akustik sababini anglagan holda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Mazkur tamoyil tovush traktining barcha bosqichlarida izchil namoyon bo‘ladi. Tovush makonida talaba tovush manbaini shunchaki tinglamaydi; uning qanday sharoitda, qanday makonda va qanday akustik ta’sir ostida shakllanayotganini aniqlaydi. Tovushni qabul qilish bosqichida u faqat mikrofon tanlamaydi, balki muayyan tovush manbai uchun nega aynan shu mikrofon, shu masofa va shu yo‘nalish tanlanayotganini asoslaydi. Tovushni qayta ishlashda protsessor yoki boshqa vosita qo‘llanilishi uning mavjudligi bilan emas, musiqiy mazmunni ochishga bo‘lgan zarurat bilan belgilanadi. Tovushni eshittirishda esa texnik tizimning to‘g‘ri ishlashi bilan bir qatorda, yakuniy natijaning tinglovchi idrokiga ta’siri baholanadi.

Shunday qilib, “Nima uchun?” tamoyili texnologik bilimni kasbiy tafakkur bilan bog‘laydi. Talaba tayyor algoritmni takrorlash bilan cheklanmay, vaziyatni tinglab, tahlil qilib, muqobil yechimlarni solishtirish va maqsadga muvofiq variantni tanlashga o‘rganadi.

Mazkur yondashuvning eng muhim jihatlaridan biri – ovoz rejissorining ijro jarayonidagi faol pozitsiyasini belgilashdir. Ovoz rejissori faqat yozuv qurilmasini boshqaruvchi texnik xodim sifatida emas, musiqiy natijaga mas’ul ijodiy hamkor sifatida namoyon bo‘ladi. Zarur holatda u ijrochining e’tiborini ijroning texnik yoki badiiy jihatdan takomillashtirilishi lozim bo‘lgan tomoniga qaratishi mumkin. Masalan, musiqiy frazaning ifodasi yetarlicha ochilmagan bo‘lsa, uning ijro xarakterini o‘zgartirishni tavsiya etishi; tonal noaniqlik yuzaga kelgan bo‘lsa, uni aniqlab, qayta ijro etishni so‘rashi; dinamika, artikulyatsiya yoki balans asarning mazmunini to‘liq ifodalamayotgan bo‘lsa, ijrochi bilan birgalikda muammoning sababini aniqlashi mumkin.

Bunday faoliyat ovoz rejissorining ijrochilikka asossiz aralashishini emas, asar badiiy mazmunining tinglovchiga yetib borishi uchun zarur bo‘lgan kasbiy mas’uliyatini anglatadi. Ovoz rejissori ijrochining badiiy erkinligini almashtirmaydi, aksincha, uning ijodiy imkoniyatlarini eshitish, tahlil qilish va texnologik jihatdan to‘g‘ri aks ettirishga xizmat qiladi.

Shu sababli “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturida amaliy topshiriqlarning mazmuni faqat texnologik operatsiyani bajarishga emas, eshitish – muammoni aniqlash – sababni anglash – yechimni tanlash – natijani baholash zanjiriga yo‘naltirilishi lozim. Bunda amaliy mashg‘ulot talabaning texnik harakatini emas, uning kasbiy qarorini namoyon etishi kerak.

Bu tamoyil fan dasturida nazariy chaqiriq sifatida emas, amaliy topshiriqlarni tashkil etish mezoni sifatida qo‘llanadi. Masalan, “Mikrofonlarning ishlash prinsiplari” mavzusida talaba turli ishlash prinsipiga ega mikrofonlar yordamida bir xil musiqiy tovush manbaini qabul qiladi, olingan signallarni qiyosiy tinglaydi va ularning farqini tahlil qiladi. Bunda asosiy pedagogik savol “mikrofon qanday ishlaydi?” bilan cheklanmay, “nima uchun aynan shu mikrofon ushbu tovush manbai uchun maqsadga muvofiq?” degan kasbiy savolga olib keladi.

Xuddi shu yondashuv mikrofonni joylashtirishda ham davom etadi: talaba mikrofonning tovush manbaiga nisbatan masofasi va yo‘nalishini o‘zgartirib, tembr, dinamika, tovush aniqligi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va qaytgan tovushlar nisbatidagi o‘zgarishlarni eshitish orqali aniqlaydi va ularning sabablarini tushuntiradi.

Aynan fan dasturidagi amaliy mashg‘ulotlar tayyor texnologik algoritmni bajarishga emas, sabab va natijani bog‘lashga qurilgan. Talaba har bir texnologik qarorning tovushga ta’sirini eshitadi, tahlil qiladi va shundan keyingina qaror qabul qiladi.

Mazkur yondashuvni quyidagi pedagogik ketma-ketlik bilan ifodalash mumkin:




3-rasm. Kasbiy qaror qabul qilish jarayoni.

Ushbu zanjir tovush trakti bilan birlashganda, ta'lim jarayonining asosiy maqsadi yanada ravshanlashadi. Talaba tovush traktining har bir bosqichida texnologik vositani maqsadga muvofiq tanlashni va uning yakuniy audio obrazga ta'sirini oldindan tasavvur qilishni o'rganadi.

Demak, "Nima uchun?" tamoyili tovush traktining ichki pedagogik mexanizmini tashkil etadi. Tovushtrakti talabaga tovush bilan ishlashning yaxlit yo'lini ko'rsatsa, "Nima uchun?" tamoyili shu yo'lning har bir nuqtasida kasbiy qaror qabul qilish mezonini beradi.

Natijada fan dasturida shakllantiriladigan kasbiy rivojlanish zanjiri quyidagicha ifodalanadi:



4-rasm. Kasbiy qaror qabul qilishning uch bo‘limli modeli

Shu asosda bo‘lajak ovoz rejissorida mustaqil kasbiy fikrlash shakllanadi. Uning faoliyatidagi har bir texnologik harakat badiiy maqsad bilan bog‘lanadi va yakuniy baholashning asosiy mezoni yana bir bor musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga imkon qadar to‘liq va ta’sirchan yetkazish bilan belgilanadi.

FAN DASTURIDA KASBIY FAOLIYATGA BOSQICHMA-BOSQICH O‘TISH

I-IV semestrlarda shakllantirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar talabaning keyingi kasbiy faoliyati uchun tayanch vazifasini bajaradi**[9]**. Mazkur bosqichda talaba tovush makoni, tovushni qabul qilish, tovushni qayta ishlash va tovushni eshittirish jarayonlarini o‘zlashtirib, ovoz rejissorining kasbiy faoliyatini yaxlit tizim sifatida anglaydi. Shu bilan birga, “Nima uchun?” tamoyili asosida texnologik vositalarni tanlash va qabul qilingan qarorlarni musiqiy, akustik hamda badiiy jihatdan asoslash ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada dastlabki to‘rt semestrda

olingan bilim va ko‘nikmalar keyingi bosqichlarda real kasbiy faoliyatga tatbiq etish uchun zarur poydevorga aylanadi.

Fan dasturining V semestri ana shu poydevordan kasbiy faoliyat muhitiga o‘tish bosqichi sifatida tashkil etilgan [9]. “Milliy musiqa ovoz rejissyorligi faoliyati va kasbiy yo‘nalishlar” mazmunida talaba ovoz rejissorligi faoliyatining uch asosiy professional muhit – ovoz yozish studiyasi, konsert zali va ochiq maydon bilan tanishadi. Studiya yo‘nalishi esa katta va kichik ovoz yozish studiyalarining o‘ziga xos sharoitlari orqali differensiallashtirilgan. Xususan, “Katta ovoz yozish studiyalarida milliy musiqa yozuvi” mavzusida studiyani yozuvga tayyorlash, ijrochilar va cholg‘ularni joylashtirish, mikrofonlarni tanlash va joylashtirish, signal yo‘llarini tashkil etish, yozuv va qayta ishlash jarayonlari o‘rganilsa, “Kichik ovoz yozish studiyalarida milliy musiqa yozuvi” mavzusida cheklangan texnik imkoniyatlardan samarali foydalanish va mavjud vositalar asosida optimal kasbiy qaror qabul qilishga e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, “Konsert zallarida milliy musiqani ovozlashtirish” mavzusida talaba konsert zalining akustik xususiyatlarini hisobga olish, ansambl va mikrofonlarni joylashtirish, SoundCheck o‘tkazish, Portal va monitor tizimlarini sozlash, kanallarni guruhlashtirish hamda jonli ijro jarayonida operativ miksni boshqarish bilan tanishadi. “Ochiq maydonlarda milliy musiqani ovozlashtirish” mavzusida esa katta ochiq maydonlarda tovush kuchaytirish tizimlari, Portal, SideFill, FrontFill, prostrel va monitor tizimlari, delay hamda tovush qamrovini nazorat qilish masalalari o‘rganiladi. Shu tariqa V semestr talabaning turli professional sharoitlarni bevosita taqqoslashiga va kelgusidagi kasbiy yo‘nalishini ongli ravishda belgilashiga zamin yaratadi.

VI semestrda talaba tanlagan kasbiy yo‘nalish bo‘yicha real ishlab chiqarish jarayoniga kiradi [9]. Fan dasturidagi “Tanlangan kasbiy yo‘nalishda ish jarayonini tashkil etish” mavzusida ovoz yozish studiyasi, konsert zali yoki ochiq maydondagi

real ish jarayonini rejalashtirish, ijodiy va texnik vazifalarni belgilash hamda ijodiy guruh va texnik mutaxassislar bilan hamkorlik qilish ko‘zda tutilgan. Bunda V semestrda olingan amaliy tajriba hamda I–IV semestrlarda shakllangan nazariy bilimlarni real ishlab chiqarish sharoitida qo‘llashga alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur bosqich keyingi mavzularda yanada chuqurlashadi: “Professional ishlab chiqarish jarayonida musiqiy asarni yozib olish”, “Musiqiy asarni yakuniy mixga tayyorlash va qayta ishlash”, “Audio mahsulotni shakllantirishda texnik va badiiy qarorlar” hamda “Yakuniy audio mahsulotni efirga tayyorlash va sifatini nazorat qilish” mavzulari orqali talaba kasbiy faoliyatning alohida bosqichlarini izchil o‘zlashtiradi. Shu ma’noda VI semestr bilimlarni real professional vaziyatlarga moslashtirish va kasbiy malakani shakllantirish bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi.

VII semestrda fan dasturi talabaning tanlangan yo‘nalishda mustaqil professional faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tishini nazarda tutadi [9]. “Tanlangan kasbiy yo‘nalishda ijodiy faoliyatni rejalashtirish” mavzusida talaba bo‘lajak ishning ijodiy va texnik vazifalarini belgilaydi, zarur vositalar va mutaxassislar tarkibini aniqlaydi hamda ish rejasini ustoz/o‘qituvchi bilan muhokama qilib takomillashtiradi. Keyingi “Tanlangan yo‘nalishlarda ovoz rejissyori ishini tashkil etish” mavzusida esa tasdiqlangan reja asosida ishchi jamoani shakllantirish, vazifalarni taqsimlash va ish jarayonini muvofiqlashtirish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

VII semestrning asosiy kasbiy mazmuni “Tanlangan kasbiy yo‘nalishda professional faoliyatni amalga oshirish” mavzusida namoyon bo‘ladi. Unda talaba ovoz yozish studiyasi, konsert zali yoki ochiq maydonda ovoz rejissyori sifatida faoliyat olib boradi, ovoz yozish yoki ovozlashtirish jarayonini boshqaradi, mikrofon va signal yo‘llarini nazorat qiladi, monitoringni tashkil etadi hamda texnik va badiiy masalalarni hal qiladi. Bajarilgan ishlarning yakuniy audio natijaga

aylantirilishi va sifat nazoratidan o‘tkazilishi esa keyingi mavzuda mustahkamlanadi.

Shu jarayonning muhim yakuniy elementi sifatida fan dasturida “Kasbiy portfolio yaratish va ijodiy ishlarni taqdim etish” mavzusi belgilangan. Unda talabaning semestr davomida bajargan kasbiy faoliyati natijalari, audio materiallari, ish jarayoniga oid hujjatlari va boshqa amaliy materiallarini tizimlashtirishi ko‘zda tutilgan. Demak, fan dasturida kasbiy faoliyatning natijasi faqat o‘zlashtirilgan bilim yoki alohida amaliy topshiriq bilan chegaralanmaydi; u real professional faoliyat natijalari bilan tasdiqlanadigan ijodiy tajriba va kasbiy portfolio shaklida jamlanadi.

Shunday qilib, “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturida kasbiy tayyorgarlik nazariy va amaliy poydevorni shakllantirish → kasbiy yo‘nalishlar bilan tanishish → tanlangan yo‘nalishda real ishlab chiqarish jarayoniga kirish → mustaqil professional faoliyat va uning natijalarini tizimlashtirish izchilligida tashkil etilgan. Bu ketma-ketlik tovush trakti asosida shakllangan dastlabki bilimlarni real kasbiy faoliyatga olib chiqadi va texnologik bilim, professional eshitish hamda “Nima uchun?” tamoyiliga asoslangan ijodiy qarorlarni amaliy natijaga aylantiradi.

XULOSA

O‘zMMSIda “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturini ishlab chiqishda asosiy vazifa bo‘lajak musiqiy ovoz rejissorining nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va ijodiy faoliyatini yagona kasbiy jarayon doirasida shakllantirishdan iborat bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan, fan dasturining mazmuni TOVUSH TRAKTI tamoyili asosida tizimlashtirilib, tovush makoni, tovushni qabul qilish, tovushni qayta ishlash va tovushni eshittirish bosqichlari ovoz rejissorining real kasbiy faoliyati bilan bog‘landi. Bu yondashuv texnologik bilimlarni alohida mavzular yig‘indisi sifatida emas, balki yagona ijodiy-amaliy faoliyatning tarkibiy qismlari sifatida o‘zlashtirish imkonini beradi.

Fan dasturining I–IV semestrlarida shakllantiriladigan bilim va ko‘nikmalar keyingi kasbiy faoliyat uchun nazariy va amaliy poydevor vazifasini bajaradi. Bu bosqichda talaba musiqiy tafakkur, akustik tafakkur, professional eshitish va texnologik bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, tovush bilan ishlashning yaxlit kasbiy jarayonini anglaydi. “Nima uchun?” tamoyili esa mazkur bilimlarni kasbiy qaror qabul qilish bilan bog‘lab, talabaning texnologik vositani shunchaki qo‘llash emas, balki uni muayyan musiqiy va badiiy maqsad asosida tanlashiga yo‘naltiradi.

V semestrdan boshlab fan dasturida o‘quv jarayoni real kasbiy faoliyat muhitiga yaqinlashtiriladi. “Katta ovoz yozish studiyalarida milliy musiqa yozuvi”, “Kichik ovoz yozish studiyalarida milliy musiqa yozuvi”, “Konsert zallarida milliy musiqani ovozlashtirish” va “Ochiq maydonlarda milliy musiqani ovozlashtirish” mavzulari orqali talaba ovoz rejissorligi faoliyatining turli professional sharoitlari bilan tanishadi. Shu tariqa avvalgi semestrlarda shakllangan umumiy kasbiy tayyorgarlik talabaning muayyan professional yo‘nalishni tanlashiga va keyingi amaliy faoliyatini ongli ravishda belgilashiga zamin yaratadi.

VI semestrda tanlangan yo‘nalish bo‘yicha real ishlab chiqarish jarayoniga kirish amalga oshiriladi. “Tanlangan kasbiy yo‘nalishda ish jarayonini tashkil etish” mavzusidan boshlab professional ishlab chiqarish jarayonida musiqiy asarni yozib olish, yakuniy mixga tayyorlash, texnik va badiiy qarorlar qabul qilish hamda yakuniy audio mahsulot sifatini nazorat qilishgacha bo‘lgan jarayon izchil o‘zlashtiriladi. Bunda I–IV semestrlarda olingan nazariy bilimlar va V semestrda shakllangan amaliy tajriba real kasbiy vaziyatlarda qo‘llanadi.

VII semestrda esa mazkur jarayon talabaning mustaqil professional faoliyatiga olib keladi. Tanlangan yo‘nalishda ijodiy faoliyatni rejalashtirish, ovoz rejissyori ishini tashkil etish, professional faoliyatni amalga oshirish, yakuniy audio natijani shakllantirish va uning sifatini nazorat qilish bosqichlari orqali talabaning kasbiy mustaqilligi rivojlantiriladi. Semestr yakunida kasbiy portfolio yaratish orqali

bajarilgan ishlar, audio materiallar, ish jarayoniga oid hujjatlar va boshqa amaliy natijalar tizimlashtiriladi.

Shunday qilib, taklif etilayotgan “Ovoz rejissorligi san’ati” fan dasturi bilim berishdan kasbiy faoliyatga bosqichma-bosqich o‘tish tamoyili asosida tashkil etilgan. Uning pedagogik modeli quyidagi izchillikda namoyon bo‘ladi:

I–IV semestrlar – kasbiy poydevor → V semestr – kasbiy yo‘nalishlar bilan tanishish va tanlov → VI semestr – real ishlab chiqarish jarayoniga kirish → VII semestr – mustaqil professional faoliyat va kasbiy portfolio.

Mazkur izchillik TOVUSH TRAKTI tamoyili bilan birgalikda fan dasturining ichki metodik yaxlitligini ta’minlaydi. Bunda TOVUSH TRAKTI talabaning tovush bilan qanday ishlashini, “Nima uchun?” tamoyili esa kasbiy qarorni nima asosida qabul qilishini, V–VII semestrlar esa o‘zlashtirilgan bilim va qarorlarning real professional faoliyatda qanday namoyon bo‘lishini belgilaydi.

Natijada fan dasturida nazariy bilim, amaliy faoliyat, professional tajriba va ijodiy natija o‘zaro bog‘langan yagona pedagogik tizimni hosil qiladi. Mazkur tizimning yakuniy maqsadi esa texnik jihatdan to‘g‘ri audio signal yaratish bilan cheklanmay, musiqiy asarning badiiy mazmunini tinglovchiga imkon qadar to‘liq, tabiiy va ta’sirchan yetkazishga qodir mustaqil ovoz rejissorini shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алдошина И.А., Приттс Р. Музыкальная акустика. – СПб.: Композитор, 2006.
2. Меерзон Б.Я. Акустические основы звукорежиссуры. – М.: Аспект Пресс, 2004.
3. Rumsey F. Sound and Recording: Applications and Theory. – 8th ed. – Oxford: Routledge, 2021.
4. Holman T. Sound for Film and Television. – 3rd ed. – Burlington, MA: Focal Press, 2010.
5. Senior M. Mixing Secrets for the Small Studio. – Oxford: Focal Press, 2011.
6. Rumsey F. Spatial Audio. – Oxford: Focal Press, 2001.
7. Wyatt H., Amyes T. Audio Post Production for Television and Film. – 3rd ed. – Oxford: Focal Press, 2005.
8. Audio Engineering Society. AES Standards and Information Documents. – Audio Engineering Society.

9. O‘zbekiston davlat musiqa va san’at instituti. Ovoz rejissorligi san’ati: fan dasturi. – Toshkent.

References

1. Aldoshina, I. A., and R. Pritts. Muzykal’naya akustika [Musical Acoustics]. Saint Petersburg: Kompozitor, 2006. (in Russian)
2. Meyerzon, B. Ya. Akusticheskiye osnovy zvukorezhissury [Acoustic Foundations of Sound Engineering]. Moscow: Aspekt Press, 2004. (in Russian)
3. Rumsey, F. Sound and Recording: Applications and Theory. 8th ed. Oxford: Routledge, 2021.
4. Holman, T. Sound for Film and Television. 3rd ed. Burlington, MA: Focal Press, 2010.
5. Senior, M. Mixing Secrets for the Small Studio. Oxford: Focal Press, 2011.
6. Rumsey, F. Spatial Audio. Oxford: Focal Press, 2001.
7. Wyatt, H., and T. Amyes. Audio Post Production for Television and Film. 3rd ed. Oxford: Focal Press, 2005.
8. Audio Engineering Society. AES Standards and Information Documents. Audio Engineering Society. n.d.
9. O‘zbekiston davlat musiqa va san’at instituti. Ovoz rejissorligi san’ati: fan dasturi [The Art of Sound Engineering: Course Syllabus]. Tashkent: n.p., n.d. (in Uzbek)